

YANGI O'ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON AZIZ!

Ubaydullaeva Shaxodat Zaynabidinovna

*Toshkent viloyati Angren shahar 10 - o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyoti fani oq'ituvchisi*

Annotatsiya: *Tilning boyligi , go'zalligi, buyuk allomalarimizning so'z tuzish borasidagi fikrlari, yosh avlodni vatan madhi, porloq kelajakka da'vat, farovonlik, erkinlik hissi bilan yashashga o'rgatish*

Kalit so'zlar: *So'z -saboq, so'z - bilim, diniy qarashlar, yurt tarannumi, o'zlikni anlamoq, yuksak cho'qqilar, talato'p davr, ma'naviyat sarchashmasi.*

Mustaqillik sharofati bilan faoliyat ko'rsatayotgan ziyo maskanimdag'i o'zgarishlarni ko'rib ko'zingiz quvonadi. Mamlakatimiz jahonga yuz tutayotgan bir pallada mustaqillik bergen ne'mat nashidasini surish naqadar go'zal tuyg'u. Yurt taraqqiyoti, til erkinligi, o'zbek tilining nufuzining kundan kunga oshib borishi, o'zbek xalqining jo'mardligi, dehqonining tantiligini, insonlar o'rtasida ruhiy -ma'naviy bog'liqlikning naqadar teran ildiz otganligini ko'rib, shukronalik hissi bilan yashash, qalbga vatan hissini joylash , xotira , qadr, diniy, insoniy tuyg'ularini yurakdan his etib yashash, biz uchun buyukligini baralla aytal olamiz. Har bir xalq, millat o'z tili va madaniyati bilan kuchlidir. O'zbekistonning I- Prezidenti marhum I.A.Karimov « O'z tilini yoqotgan millat, o'zligidan judo bo'lishi muqarrar» deb uqtirishlarida jon bor edi. O'z tilimizning sofligini, uning ta'sirchanligini saqlagan holda, o'zbek tilining go'zalligini namoyish etish uchun uning boy ifoda vositalaridan o'rinli va unumli foydalanish, albatta bizning madaniyatimizda namoyon bo'ladi. O'sib borayotgan yosh avlodni tarbiyalashda, uning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirida ,albatta, so'z sehri, uning qudrati zamin yaratadi. Tilimiz qadrining balandligi , bu bizning ruhiy qarashlarimiz , ma'naviy sarchashmalarimizning tiniq ifodasi. Go'zal vatanimizda qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, alp o'g'lonlar, yurt bayrog'ini ko'klarga ko'tarib , galabani qo'lga kiritib, «Hech kimga bermaymiz , seni O'zbekiston» shiorlari bilan g'alaba shoxsupada turgan o'zbek farzandlarimizni Yurtboshimiz tomonidan qutlashlaridagi sevinch ko'z yoshlarini aytmaysizmi ? Bu mo'jizakor zamin, siru- sinoatga to'la tarix, masjidlarida azon eshitilgandagi yurakdagi ilhaqlik, Olloh sevgan bandaman deyishida, so'zning gavharligi, uning daryosi ko'ngil ekanligiga ,ana shu daryodan gavharni olib chiqish uchun zo'r g'avvos kerak bo'lishi, bu ham bo'lsa, o'sha g'avvos, mard, vatanparvar o'zbek o'g'loni timsolida namoyon bo'ladi.

Jahongashta allomalar, buyuk siymolar avlodi ekanligimiz, yillar davomidagi o'zimizning iqtidorimiz, qobiliyatimiz bilan vujudga kelgan teran fikrlar, unda jo'sh uradigan vatan madhi, meroslarimizni qadrlash kabi buyuk g'oyalarimizni kimgargadir qo'sh qo'lladik. Chunki inson qalbiga milliy g'ururni, o'zlikni, qadr - qimmatni, ma'naviy qarashni qalblarimizga tugish uchun birinchi navbatda , biz o'zligimizni

anglagan bo'lismiz kerak edi. Millatni millat darajasiga ko'taradigan, yurt ravnaqi, xalq farovonligiga da'vatni, avvalo , mustaqil bo'lganda sezdir. O'z tiliga bepisandlik, kelajakni ko'ra olmaslik, shu bilan birga tarixiy meroslarimizga , moziy eshiklarida ilhaqlikda qolgan Qodiriyu, Cho'lponlarga ,Avloniyu, Fitratlarga hurmatsizlikka olib keldi. Ma'naviyatning boy xazinalari bo'lgan noyob asarlar kitob javonlarda o'z egasini anglay olmay qolgan davr bo'ldi. Ibrat , Avloniy bobolarimizning ilm istagida dunyo kezganligidagi holatga bir nazar, oiladan, yurtdan yiroqlik , ma'naviyat durdonalarini misqollab terib, avom xalqni erkka, ilmga chorlash istaklarida eng og'ir tahdidlar, ortida buyuk tariximizga, boy meroslarimizga e'tiborni ko'rib, ozod, obod yurt farzand ekanligimizga tahsinlar aytamiz. Albatta, buning ortida Yurtboshimizning odilona siyosati, kitobxonlikka da'vat, kelajakni oldindan ko'rish , muhim strategik yo'nalişlarida barcha jabhalarda olib borilayotgan siyosiy- iqtisodiy ma'naviy -ma'rifiy ishlari, nafaqat kelajak avlodni, balki ota- onalarning o'z farzandlari taqdirida ayanchli holatni emas, bugunning ertasi borligiga ishonchni namoyon etdi . Keyingi shiddat bilan rivojlanayotgan ta'llim jabhasidagi o'zgarishlarni ko'rib ko'zingiz quvonadi. Ta'llim jabhalarida o'quvchilar o'rtasida shahar, viloyat , Respublika bosqichlarida o'tkazilayotgan olimpidalar natijasi katta . Sport bo'yicha qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, xorij davlatlarida yurt sha'nini himoya qilib, katta marralarga erishayotgan yoshlarimiz ko'p.

O'qituvchilik kasbidek sharafli kasb yo'q, shunday ekan bunday mashaqqatli kasb egasi bo'lismiz uchun avvalo inson qalbida insoniylik, bolalarga muhabbat, vatanni sevish xislatlari bo'lismi lozim. Men bu kasbni tanlaganim, yoshligimdag'i orzuim bo'lgan. Bolalarning etuk, komil inson bo'lib etishishlarida o'qituvchining mehnati katta. Men o'z faoliyatim davomida «O'qitish -bu o'qish degani» shioriga amal qilib kelganman. Birinchi o'rinda bolalar bilan individual ishlamasdan , bola ruhiy holati, uning tarbiyasida ro'y beradigan holatlar haqida ma'lumotga ega bo'lmaymiz. Shuning uchun, o'qituvchi tarbiyachi, bola etaklovchi, dunyonni tanituvchi zotdir.

Tarbiya -bu insonni ma'naviy- ma'rifiy shakllantirishga boshlovchi hayot yo'lidir.

Musulmon odobiga doir «Ma'naviy ziyofat » kitobida keltirilgan bola tarbiyasidagi muhim jihatlar yoki Imom al -Buxoriy bobomizning asarlarini o'rganib, farzandlarimizga ibrat maktabini ochsak, o'z farzandlarimiz barkamol nasl bo'lib etishishi , jamiyatda o'z o'rnini egallashiga, vatanga sodiq, elu- xalqning xizmatiga tayyor , vijdonli, diyonatli bo'lismiga yuz foiz tayyorlagan bo'lamiz. Ularning qalbiga yoshligidan iyomon, e'tiqod urug'larini sepish, ularga Payg'ambarlarimizni tanishtirish va sevdirish lozim. **Yurtboshimiz aytganlaridek :** «Biz farzandlarimizni Imom Buxoriy hadislari, Yassaviy hikmatlari, Termiziy o'gitlari, Naqshband ta'llimoti asosida tarbiyalashimiz kerak» , toki ular Allohdan qo'rqaqidan , jamiyatga foyda keltiradigan , xalqiga xizmat qiladigan diyonatli insonlar bo'lib etishsin.

Kelajakda oldinga qo'ygan maqsadlarim sari odimlab kelayotganimga ham 30-yildan oshibdi. Demak , hayot karvonni o'z izmi bilan meni to'g'ri maqsadimga etkazgani , bundagi g'urur, e'tiqodim, vatanga muhabbat, xalqimni sevish ,har qanday

sharoitlarda ham Yurtboshimizga elkadosh bo'lib, xalq bilan hamnafas bo'lib , olg'a intilayotganimga amin bo'ldim.

So'nggi yillarda o'qituvchilik kasbida yuz bergan o'zgarish barchasi quvonarli holat , chunki o'qituvchi zotiga e'tiborsizlik, ularning mehnatlarining qadrlanmasligiga barham berildi. Pandemiya balosida ro'y bergan har qanday holatda ham o'qituvchi zoti onlayn tizimda bel bog'lab faoliyat ko'rsatdi. Bu sinovlarni ham engib o'tib, bilim berish naqadar muhim ekanligiga ota-onalar ishonch hosil qildilar. Qolaversa, Xalqaro olimpiadalarda katta - katta yutuqlarni zabit etdilar. Albatta, bu zafar ortida oddiy muallimning mehnati, izlanishlari namoyon bo'ladi. Inson qadri dunyoni zabit eta olgan odilonha siyosat qarashlar uyg`unligi turibdi. Ko'ksimiz g'oz , dunyoning ma'naviyat shamolini yurakdan his etishimiz ,o'zimizga ishonch, yakdillik tuyg'ulari bilan javlon urib yashayapmiz. Qayda bunday tanti diyor, qayda bunday saxiy xalq, omad kabutarini boshiga toj etgan insonlar!!

Hayot haqiqati- tarbiya, tarbiya va yana tarbiya..

Bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi pastkashlar , yomonlar , beboshlari, o'g'rilar, giyohvandlar va nashavandlar kecha tarbiyalariiga e'tibor berilmagan bolalardir. Adabiyotimizning buyuk siyoshi A. Avloniyning ushbu o'gitlari men uchun saboqdir.

Demak biz ta'llim- tarbiya berayotgan yosh avlodning kelajagi buyukdir. Bu barcha bilim ko'nikmalar, savodxonlikni oshirishda, ma'naviy -ma'rifiy ishlarni to'g'ri yo'lga qo'yilishida , bevosita ziyo maskani rahbarlarining hissasi katta.

Ta'llim- tarbiyaga e'tibor qon- qonimizga singib ketgan bir davrda muslimon odobiga doir «Ma'naviy ziyofat » kitobida keltirilgan bola tarbiyasidagi muhim jihatlar yoki Imom al -Buxoriy bobomizning asarlarini o'rganib, farzandlarimizga ibrat maktabini ochsak, o'z farzandlarimiz barkamol nasl bo'lib etishishi , jamiyatda o'z o'rnnini egallashiga , Vatanga, sodiq elu - xalqning xizmatiga tayyor, vijdonli, diyonatli bo'lishiga yuz foiz tayyorlagan bo'lamiz. Ularning qalbiga yoshligidan iymon, e'tiqod urug'larini sepish, ularga Payg'ambarlarimizni tanishtirish va sevdirish lozim. Yurtboshimiz aytganlaridek : «Biz farzandlarimizni Imom al-Buxoriy hadislari, Yassaviy hikmatlari, Termiziy o'gitlari, Naqshband ta'llimoti asosida tarbiyalashimiz kerak» , toki ular Allohdan qo'rqaqidigan, jamiyatga foyda keltiradigan , xalqiga xizmat qiladigan diyonatli insonlar bo'lib yetishishsin kelajakda komil inson bo'lib ulg'ayish hissi ularning qalblaridan joy olsin.

Ona tilimizning nufuzini oshirish uchun ,» Ikki til tarixi va uning tahlili » ruknida ish olib borilishi , yosh avlodni chet tillarini puxta o'rganishida , albatta axborot texnologiyasining rivojlantirishida, qo'limizdagи bor imkoniyatlarni kelajak uchun safarbar etishga zamin yaratadi. . **Prezidentimiz ta`kidlaganlaridek**, so`nggi 5- yil ichida amalga oshirilayotgan ishlarni qishloq xo`jaligi sohalarida qator investisiya loyihalari ,shu bilan birga aholini qo`llab-quvvatlash maqsadida «Ayollar daftari» , «Temir daftari» yo`lga qo`ylganligi yoshlarni bandligini ta`minlash ularni kasb-hunarga o`rgatish borasida olb borilayotgan chora -tadbirlar va albatta , ularning yuqori natijani ko`rsatayotganligi quvonarli holdir. **Biz yoshlarni «Yangi O'zbekistonda , yangicha qarash »** g`oyasi bilan

bilan yashasha nafaqat xalq manfaati yo'lida mehnat qilish balki vatan oldidagi burchimizni ado etishga undaydi.

O`zligimizni anglash ,bu bashariyat tarixi shundan dalolat beradiki, har bir xalq faqat erkin va ozod farovon bo`lgan taqdirdagina o`z hayoti va kelajagini mustaqil barpo etish huquqiga ega. Bizning insoniy qadriyatlarimizni o`zligimizni tiklab bergen Mustaqillk bizning moziydan shonli tariximizdan yorqin bir sahifa.Shunday ekan bu buyuk taraqqiyoti bosqichlaridan hech og`ishmay yangi g`oyalarni tarixning zalvorli yukidan buyuk yutuqlar sari intilishda namoyon bo`ladi.

Yangicha qarash . yangicha g`oyalar bilan fidoyi yoshlарimizni olijanob maqsad sari etaklaydi.Yurt tinch, xalqimiz farovon yashayapti shu kurrai zaminda yashayotganimizga shukronalar bo`lsin.